

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING TASHQI SAVDO AYLANMASI (2022-yil yanvar-aprel oylari uchun dastlabki ma'lumot)

Respublika iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi diversifikatsiyalangan va raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishga, innovatsion texnologiyalar va bozorni boshqarishning yangi usullaridan foydalangan holda milliy resurslardan maksimal darajada foydalanishga yo'naltirilgan. Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2022- yilning yanvar-aprel oylari yakuni bilan respublikaning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 202,6 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 18,3 mln. AQSh dollariga yoki 91,7 % nitashkil etdi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI (yanvar-aprel oylari, ming AQSh dollar)

	2021- yil	2022- yil	O'sish sur'ati, % da	Jamiga nisbatan, % da
Tashqi savdo aylanmasi	220 910,3	202 575,9	91,7 %	x
Eksport	143 667,2	120 655,3	84,0 %	100,0
tovarlar	142 842,1	118 315,2	82,8	98,1
xizmatlar	825,1	2 340,1	283,6	1,9
oltin	-	-	-	-
Import	77 243,0	81 920,6	106,1 %	100,0
tovarlar	73 567,2	78 158,8	106,2	95,4
xizmatlar	3 675,8	3 761,8	102,3	4,6
Saldo	54 822,4	31 052,5	x	x

Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinnarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinnarda – XSST) ishlatalidi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

TSA da eksport hajmi 120,7 mln. AQSh dollariga (23,0 % ga kamaydi) va import hajmi 81,9 mln. AQSh dollariga (4,7 % ga ko'paydi) yetdi. Hisobot davrida 38,7 mln. AQSh dollari qiyomatida ijobiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI BILAN TASHQI SAVDO
AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR**
(2022- yil yanvar-aprel oylari, mln. AQSh dollari)



Qoraqalpog'iston Respublikasi, jahoning 49 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Turkiyada (30,5 %), Xitoy Xalq Respublikasida (26,8 %), Latviyada (15,0 %), Rossiya Federatsiyasida (8,5 %), Qozog'istonda (5,4 %), Koreya Respublikasi (3,8 %) va Afg'onistonda (2,0 %) qayd etilgan.

Iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari va korxonalarining barqaror va uzlusiz ishlashini ta'minlash uchun respublikada zarur resurslar bazasi yaratilgan. Eksport tarkibida sezilarli o'zgarishlarga import tovarlarning o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish va sanoat ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish natijasida erishildi.

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

TSA da so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda TSAda Qирг'изистон, Ағонистон ва Тоҷикистон bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoxda. Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Turkiya, Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi va Latviya davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.



TO'RTTA FAOL TASHQI SAVDO BALANSI KUZATILGAN DAVLATLAR
(yanvar-aprel oylari, mln. AQSh dollar)



Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 20 ta yirik hamkor davlatlar orasidan 12 ta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Turkiya (41,2 mln. AQSh dollar), Xitoy Xalq Respublikasi (62,4 mln. AQSh dollar), Rossiya (28,8 mln. AQSh dollar) va Latviya (18,2 mln. AQSh dollar) shular jumlasidandir. Qolgan 6 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.



**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING YIRIK HAMKOR
DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI**
(yanvar-aprel oylari, ming. AQSh dollarri)


Davlat nomi	2020-yil	2021- yil	2022- yil
Turkiya	21030,6	43223,9	41246,5
Eksport	20318,9	38626,6	36856,5
Import	711,7	4597,3	4390
Saldo	19607,2	34029,3	32466,5
Xitoy Xalq Respublikasi	41434,9	46163,8	62406,6
Eksport	31214	33136,4	32278,7
Import	10220,9	13027,4	30127,9
Saldo	20993,1	20109	2150,8
Latviya	10302,5	14227,4	18192,3
Eksport	8410,1	14035,5	18091,3
Import	1892,4	191,9	101
Saldo	6517,7	13843,6	17990,3
Rossiya Federatsiyasi	41744	39124,9	28848,5
Eksport	30490,4	26815,9	10247,9
Import	11253,6	12309	18600,6
Saldo	19236,8	14506,9	-8352,7
Qozog'iston	18103,5	19183,2	15947,4
Eksport	12048,1	10722	6563,3
Import	6055,4	8461,2	9384,1
Saldo	5992,7	2260,8	-2820,8
Koreya Respublikasi	11891,5	6828,4	10575,6
Eksport	1170,6	376,7	4658,5
Import	10720,9	6451,7	5917,1
Saldo	-9550,3	-6075	-1258,6

Davlat nomi	2020-yil	2021- yil	2022- yil
Afg'oniston	778,9	1979,4	2427,7
Ekspорт	766,5	1979,4	2427,7
Import	12,4		
Saldo	754,1	1979,4	2427,7
Qirg'iz Respublikasi	988,1	2811,3	2937,7
Ekspорт	556,8	1794,5	2161,1
Import	431,3	1016,8	776,6
Saldo	125,5	777,7	1384,5
Ukraina	889,8	7751,1	1679,9
Ekspорт	642,8	7451,2	1613,1
Import	247	299,9	66,8
Saldo	395,8	7151,3	1546,3
Fransiya	11,8	1645,6	989
Ekspорт		1240,6	830
Import	11,8	405	159
Saldo	-11,8	835,6	671
Gruziya	10,0	1040,6	730,9
Ekspорт	2	1040,6	730,9
Import	8		
Saldo	-6	1040,6	730,9
Ozarbayjon	66,9	66,6	469
Ekspорт		66,6	469
Import	66,9		
Saldo	-66,9	66,6	469
Iraq	1060,1	1142	223,9
Ekspорт	1060,1	1142	223,9
Import			
Saldo	1060,1	1142	223,9

Davlat nomi	2020-yil	2021- yil	2022- yil
Tojikiston	683,9	1297,4	193,5
Eksport	683,9	1297,4	193,5
Import			
Saldo	683,9	1297,4	193,5
Germaniya	367,6	4138,3	712,0
Eksport	98,2	197,8	158,4
Import	269,4	3940,5	553,6
Saldo	-171,2	-3742,7	-395,2
Yaponiya	162,9	219,2	988,5
Eksport		97,9	141,7
Import	162,9	121,3	846,8
Saldo	-162,9	-23,4	-705,1
Iron	1015,2	714,3	731,2
Eksport	0	218,0	141,4
Import	1015,2	496,3	589,8
Saldo	-1015,2	-278,3	-448,4
Turkmaniston	827,8	1049,3	688,5
Eksport	185,3	279,7	129,8
Import	642,5	769,6	558,7
Saldo	-457,2	-489,9	-428,9
Tayland	0,1	0	118,1
Eksport	0,1		118,1
Import			
Saldo	0,1	0	118,1
Hindiston	99,4	58,5	88,7
Eksport	99,4	58,5	88,7
Import			
Saldo	99,4	58,5	88,7

Qoraqalpog'iston Respublikasi tashqi savdo aylanmasining uchdan bir qismi MDH davlatlariga to'g'ri keladi va bu ko'rsatkich so'ngi yillarda biroz o'zgardi.

Respublikamizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlarga qaramay, 2022- yilning yanvar-aprel oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 25,2 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi 2021- yilga nisbatan ulushi 7,3 % ga kamaydi.



Boshqa xorijiy davlatlarning TSAsi 2022- yilning yanvar-aprel oylarida 2021- yilning shu davriga nisbatan 1,6 % ga ko'paydi va jami TSAdagi ulushi 74,8 % ni tashkil etdi.

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING EKSPORTI (2022-yil yanvar-aprel oylari)

Joriy yilning yanvar- aprel oylarida mamlakatning eksportyrorlari soni 112 tani tashkil etib, ular tomonidan 120,7 mln. AQSh dollarari (qimmatbaho metallar eksportidan tashqari) qiymatidagi (2021- yilning mos davriga nisbatan 84,0 % ni tashkil etdi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 97,0 % ni tashkil etib, ular asosan kimyoiy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xhash mahsulotlar (69,2 %),sanoat tovarlari (13,8 %), nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari (8,9 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (5,1 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.





**MDH VA BOSHQA XORIJY DAVLATLARGA EKSPORT TARKIBI
(2022-yil yanvar-aprel)**

XSST tarkibi	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mingAQSh dollari	o'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajimga nisbatan, % da	mingAQSh dollari	o'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajimga nisbatan, % da	mingAQSh dollari	o'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajimga nisbatan, % da
Jami eksport	120655,3	84,0	100,0	21 298,3	43,9	100,0	99 357,0	104,4	100,0
shu jumladan:									
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	6 142,1	91,8	5,1	1897,7	93,0	8,9	4244,4	91,3	4,3
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	10 780,3	79,2	8,9	224,9	27,3	1,1	10555,4	82,6	10,6
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	-	-	-	-	-	-	-	-
Kimyoiy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	83 531,7	79,1	69,2	14206,7	35,2	66,7	69325,0	106,2	69,8
Sanoat tovarlari	16 685,3	105,8	13,8	3408,6	82,8	16,0	13276,8	113,9	13,4
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	15,7	946,9	0,0	15,7	-	-	-	-	-
Turli xil tayyor buyumlar	1 160,1	491,3	1,0	1160,1	1 411,9	5,4	0,0	0,0	0,0
Xizmatlar	2 340,1	283,6	1,9	384,7	63,0	1,8	1955,4	913,2	2,0

MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yo'nalishi bo'yicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoxda. Xususan, MDH mamlakatlariga eksportning asosiy qismi kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar hissasiga to'g'ri kelmoqda, eksport hajmi bo'yicha keyingi o'rinalar sanoat tovarlari, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar hamda nooziq-ovqat xomashyoga(yoqilg'idan tashqari) to'g'ri kelmoqda.

2022- yilning yanvar-aprel oyida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida sezilarli o'zgarishlar qayd etilmadi, biroq shuni ta'kidlash joizki, 2021- yilning yanvar-apreliga nisbatan, nooziq-ovqat xomashyo (yoqilg'idan tashqari),sanoat tovarlari hamda xizmatlardan tashqari barcha tovar guruhlarida o'sish kuzatildi.



**EKSPORT TARKIBI DINAMIKASI
(yanvar-aprel oylari, % da)**

XSST tarkibi	2020-yil	2021- yil	2022- yil
Jami	100,0	100,0	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	4,7	4,7	5,1
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	9,6	9,5	8,9
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,6	0,6	0,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		0,0	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	73,4	73,5	69,2
Sanoat tovarlari	11,0	11,0	13,8
Mashinalar va transport asbob-uskunalarini		0,0	0,0
Turli xil tayyor buyumlar	0,2	0,2	1,0
Xizmatlar	0,6	0,6	1,9



**XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR
EKSPORTI TARKIBI
(2022-yil yanvar-aprel)**


XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollarari	2020- yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirk hayvonlar		
Sabzavotlar va mevalar	3 719,0	82,1
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	2 391,8	118,1
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	5,1	4,5
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	18,2	112,3
Har hil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar		
Sut mahsulotlari va parranda tuxumlari	7,9	343,5
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar		
Nooziq-ovqatxomashyo, yoqilg'idan tashqari		
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	9 153,2	78,4
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	410,0	23,5
Moy olinadigan urug'lar va mevalar	65,6	236,8
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo (ko'mir, neft va qimmatbaho toshlardan tashqari)	1 151,6	687,5
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar		
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlikmoylarivayog'lari (xom, tozalanganyokifraksiyalangan)	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar		
Noorganik kimyo moddalari	56,2	291,2
Birlamchi shakldagi plastmassalar	83 425,4	79,0
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; xojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	45,3	116,1
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar		
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalalar va bo'yoqlar		
Birlamchi bo'limgan shakldagi plastmassalar	4,9	12,3 b

Sanoat tovarlari			
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	11 827,3	75,7	
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	20,7	862,5	
Boshqa boshqa bo'limgan metall buyumlar	206,4	-	
Ruda bo'limgan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar			
Teri, boshqa bo'limgan tayyor charm mahsulotlari, mo'ynalar			
Boshqa toifalarga kiritilmagan, metall bo'limgan minerallardan olinigan mahsulotlar	4 631,0	31,1 b	
Mashinalar va transport asbob-uskunalar			
Avtomobillar	1 042,5	-	
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblar va ularning ehtiyoj qismlari			
Sanoat uchun maxsus bo'limgan mashinalar va ularning detallari	2,3	287,5	
Elektr aloqasi, ovozni yozish va eshittirish apparaturalari va uskunalar			
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	1,0		
Maxsus bo'limgan uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	12,5		
Turli xil tayyor buyumlar			
Har xil tayyor buyumlar	35,3	91,7	
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	565,2	307,5	
Kiyim-kechaklarva kiyim-kechak anjomlari	552,1	40,0 b	
Santexnika, isitish va yoritish uskunalar uchun binolar, armatura va armatura bloklari, boshqa toifalarga kiritilmagan			
Mebel va ularning qismlari, ko'rpa-to'shaklar, matraslar, matraslar, yostiqlar va shunga o'xshash to'ldirilgan mebellar	7,2		
Xizmatlar			
Moliyaviy xizmatlar	175,7	75,8	
Transport xizmatlari	109,1	32,2	
Safarlar (turizm)	120,6	47,3	
Boshqa ish yuzasidagi xizmatlar	-	-	
Qurilish xizmatlari	1 934,7	-	


So'nggi uch yilda MDH mamlakatlariga eksport hajmi kamaydi va ularning jami eksportdagi ulushi 2020-yilning yanvar-aprelga 40,1 % dan 2022- yilning yanvar-aprel oylarida 17,7 % ga kamaydi. Mos ravishda boshqa mamlakatlarning jami eksportdagi ulushi 82,3 % ni tashkil etdi.



**MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR
EKSPORTINING HAJMLARI DINAMIKASI**
(yanvar-aprel oylari, mln. AQSh dollarri, ulushi, % da)



2022- yilning yanvar-aprel oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Turkiya (30,5 %), Xitoy Xalq Respublikasi (eksport umumiy hajmining 26,8 % i), Latviya (15,0 %), Rossiya Federatsiyasi (8,5 %), Qozog'iston (5,4 %), Koreya Respublikasi (3,9 %) va Afg'oniston (2,0 %) davlatlari saqlanib qolmoqda hamda ularning jami eksportdagi ulushi 92,1 foizni tashkil etmoqda.

RESPUBLIKA EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR
DAVLATLARNING ULUSHI
(2022-yil yanvar-aprel oylari, % da)

2022- yilning yanvar-aprel oylarida, o'tgan yildagi kabitovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlardan yetakchi bo'lgan Xitoy Xalq Respublikasining ikki pog'onaga tushishi hisobiga, Turkiya eksportdagi ulushi bo'yicha peshqadamlilikni oldi.

Joriy yilning yanvar-aprel oylarida hamkor mamlakatlarning tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha geografiyasi 2021-yilning mos davriga nisbatan 41 davlatdan 37 davlatga ko'paydi.



**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING ASOSIY HAMKOR
DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH
SUR'ATLARI**
(2022- yil yanvar-aprel oylari, ming AQSh dollari)

Davlatlar	Ming AQSh dollarri		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2021-y.	2022-y.	2021-y.	2022-y.	2021-y.	2022-y.
Turkiya	38626,6	36856,5	190,1	95,4	1	1
Xitoy Xalq Respublikasi	33136,4	32278,7	106,2	97,4	2	2
Latviya	14035,5	18091,3	166,9	128,9	4	3
Rossiya	26815,9	10247,9	87,9	38,2	3	4
Qozog'iston	10722,0	6563,3	89,0	61,2	5	5
Koreya Respublikasi	376,7	4658,5	32,2	1236,5	15	6
Afg'oniston	1979,4	2427,7	258,2	122,6	7	7
Qirg'iz Respublikasi	1794,5	2161,1	322,3	120,4	8	8
Ukraina	7451,2	1613,1	1159,3	21,6	6	9
Fransiya	1240,6	830,0	-	66,9	10	10
Gruziya	1040,6	730,9	50805,7	70,2	13	11
Ozarbayjon	66,6	469,0	-	704,7	29	12
Kanada	1142,0	223,9	107,7	19,6	-	13
Tojikiston	1142,0	223,9	107,7	19,6	9	14
Germaniya	1297,4	193,5	189,7	14,9	19	15
Yaponiya	197,8	158,4	201,4	80,1	23	16
Iron	97,9	141,7	-	144,7	18	18
Turkmaniston	218,0	141,4	-	64,9	17	19


Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar, sanoat tovarlari hamda nooziq-ovqat xomashyo (yoqilg'idan tashqari) kiradi.



**RESPUBLIKANING AYRIM DAVLATLAR BILAN EKSPORT TARKIBI
(2022- yil yanvar-aprel oylari, ming AQSh dollarri)**

XSST tarkibi	Xitoy		Turkiya		Rossiya		Latviya	
	2021-y.	2022-y.	2021-y.	2022-y.	2021-y.	2022-y.	2021-y.	2022-y.
Jami eksport	33136,4	32278,7	38626,6	36856,5	26815,9	10247,9	14035,5	18091,3
shu jumladan:								
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirkik hayvonlar	425,7	454,4	316,8	277,2	144,9	133,4		29,7
Ichimliklar va tamaki								
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	9476,1	8857,4	1407,1	215,1	768,2	133,8	161,6	
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	-	-	-	-	-	-	-	
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar								
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	14982,7	17018,4	33584,3	31514,6	21845,9	7561,3	13874,0	18061,6
Sanoat tovarlari	8097,6	4013,1	3317,3	4848,0	3792,9	2278,9		
Mashinalar va transport asbob- uskunalarini				727,2				
Turli xil tayyor buyumlar	153,5				1,6			
Xizmatlar	0,8	1935,4	1,0	1,6	262,5	140,4	0,0	

Xizmatlar eksporti hajmi 2 340,1 ming AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 1,9 % ulishini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 1,4 % ulishiga ko'payganligi kuzatildi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi safarlar (turizm) (5,1 %), transport (4,7 %), qurilsh (82,7 %) hamda moliyaviy xizmatlar (7,5 %) hissasiga to'g'ri kelgan.


XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI
(2022- yil yanvar-aprel, ulushi, % da)

MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 1 909,7 ming AQSh dollari qiymatli 8 714,8 tonnadan ziyod meva-sabzavot eksport qilingan. Bunda 2021- yilning mos davriga nisbatan 26,7 ming AQSh dollarida o'sish kuzatilib, 98,6 % ga tashkil etdi. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 1 667,3 ming AQSh dollariga teng 8 455,1 tonna sabzavot, shuningdek, 119,2 ming AQSh dollari qiymatidagi 84,1 tonna meva va rezavorlar eksport qilindi.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2022- yil yanvar-aprel, ming AQSh dollarri)



Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qozog'iston (65,6 %), Qirg'iz Respublikasi (13,6 %), Koreya Respublikasi va (11,1 %) Rossiya (7,0 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Bugungi kunda Qoraqalpog'istonda meva-sabzavot mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash va eksport qilish sektorining salohiyati juda yuqori va bu qulay tabiiy-iqlim sharoitlari mavjudligi hamda mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan to'plangan tajriba bilan ham bog'liqligi bilan ifodalanadi. Shu munosabat bilan hukumat qishloq xo'jaligi xomashyosini sanoat asosida qayta ishlashga va yetishtirilgan mahsulotni saqlash infratuzilmasini rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (yanvar-aprel)

Davlat nomi	2021- yil			2022- yil		
	tonna	ming AQSh dollarri	ulushi*, % da	tonna	ming AQSh dollarri	ulushi*, % da
Qozog'iston	10038,3	1669,6	86,2	7 361,2	1 253,3	65,6

Davlat nomi	2021- yil			2022- yil		
	tonna	ming AQSh dollari	ulushi*, % da	tonna	ming AQSh dollari	ulushi*, % da
Qirg'iz Respublikasi				982,6	260,5	13,6
Koreya Respublikasi				192,1	211,3	11,1
Rossiya	157,1	144,9	7,5	153,7	133,4	7,0
Ozarbayjon	-	-	-	18,0	19,5	1,0
Izroil	-	-	-	7,3	31,7	1,7

*-qiymat ifodasida



TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI

To'qimachilik mahsulotlari eksporti hajmining oshishi bevosita paxta xomashyosi o'rniiga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlarning natijasi ekanini ko'rish mumkin. Jumladan, joriy yilda 12 595,1 ming AQSh dollarlik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 10,4 % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 80,1 % ni tashkil qildi.

Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida paxtadan yigirligan ip (91,7 %) hamda ipak va ipak mahsulotlari (1,7 %) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan 6 turdag'i to'qimachilik mahsulotlari dunyoning 6 ta davlatiga eksport qilindi.

Respublikaning to'qimachilik sanoatini diversifikatsiya qilish va tayyor mahsulotlar eksportini rag'batlantirish borasidagi amaliy ishlari natijasida, mamlakatimizning ushbu sohadagi salohiyati oshib bormoqda.



TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI (yanvar-aprel, ming AQSh dollari)

Tovar nomi	2020-y.	2021-y.	2022-y.
Paxtadan yigirilgan ip	9671,5	15398,8	11550,8
Ipak va ipak mahsulotlari	87,6	91,9	215,7
Naqshli mato	-	-	-
Gilamlar va boshqa to'qimachilik pol qoplamlari	-	-	0,2
Tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari	-	13,8	35,9
Tayyor kiyim tikish	-		516,2
Boshqa tayyorlangan to'qimachilik, lattalar	-	22,6	276,3

To'qimachilik mahsulotlarining eng katta ulushi Turkiya (4 848,0 ming AQSh dollari – 38,5 %), Rossiya Federatsiyasi (4 013,1 ming AQSh dollari – 31,9 %) va Xitoy Xalq Respublikasi (2 278,9 ming AQSh dollari – 18,1 %) davlatlari hissasiga to'g'ri keldi.



ALOHIDA TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI (yanvar-aprel, ming AQSh dollari)






**DAVLATLAR KESIMIDA TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI
EKSPORTI DINAMIKASI
(yanvar-aprel ming AQSh dollarri)**

Davlatlar	2020-yil	2021- yil	2022- yil
Turkiya	2362,1	3317,3	4848,0
Xitoy Xalq Respublikasi	3449,5	8152,9	4013,1
Rossiya Federatsiyasi	3232,8	3785,1	2278,9
Qirg'iz Respublikasi	41,0	193,1	502,1
Kanada	-	-	342,4
Ukraina	-	-	176,9
Ozarbayjon	-	-	149,5
Iron	-	-	141,4
Hindiston	87,6	36,6	74,3
Singapur	-	-	68,7

**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING IMPORTI
(2022-yil yanvar-aprel)**

2022- yilning yanvar-aprel oylarida import hajmi 81,9 mln. AQSh dollarini va 2021- yilning mos davriga nisbatan 106,1 % ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalarini (40,4 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (14,7 %) hamda kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (11,7 %) hisobiga to'g'ri keldi.



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2022- yilning yanvar-aprel oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 81,9 mln. AQSh dollariga ko'paydi va 106,1 % ni tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 3,8 mln. AQSh dollariga yetdi.



**MDH VA BOSHQA XORIJY DAVLATLARDAN IMPORT TARKIBI
(2022-yil yanvar-aprel)**

Tarkibi	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	ming AQSh dollarri	o'tgan yilga nisbatan, % da	umumiyl hajmiga nisbatan, % da	ming AQSh dollarri	o'tgan yilga nisbatan, % da	umumiyl hajmiga nisbatan, % da	ming AQSh dollarri	o'tgan yilga nisbatan, % da	umumiyl hajmiga nisbatan, % da
Jami import	81 920,6	106,1	100,0	29 703,2	128,1	100,0	52 217,4	96,6	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirkihayvonlar	12 035,7	110,4	14,7	10 247,6	130,7	34,5	1 788,1	58,4	3,4
Ichimliklar va tamaki	-	-	-	-	-	-	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	6 819,3	158,4	8,3	6 762,6	158,4	22,8	56,7	158,6	0,1
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	4 819,0	95,7	5,9	2 296,6	83,5	7,7	2 522,4	110,3	4,8
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	2 453,7	111,3	3,0	2 453,7	111,3	8,3	-	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	9 573,0	116,3	11,7	978,0	91,1	3,3	8 595,1	120,1	16,5
Sanoat tovarlari	8 014,6	181,8	9,8	5 755,0	191,5	19,4	2 259,6	160,8	4,3
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	33 104,9	92,2	40,4	832,7	169,2	2,8	32 272,2	91,1	61,8
Turli xil tayyor buyumlar	1 338,8	52,4	1,6	297,7	353,9	1,0	1 041,1	42,2	2,0
Xizmatlar	3 761,8	102,3	4,6	79,5	5,4	0,3	3 682,3	167,0	7,1

Joriy davrda import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko'rsatdiki, 2022- yilning yanvar-aprel oylarida 2021- yilning mos davriga

nisbatan nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari importining ulushi 5,6 % dan 8,3 % gacha o'sdi, mashinalar va transport asbob-uskunalar 46,5 % dan 40,4 % ga, turli xil tayyor buyumlar ulushi esa 3,3 % dan 1,6 % ga kamaydi.



**IMPORT TARKIBI DINAMIKASI
(2021- yil yanvar-aprel, ulushi, % da)**

XSST tarkibi	2020-yil	2021- yil	2022- yil
Jami import	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	12,7	14,1	14,7
Ichimliklar va tamaki			
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	11,2	5,6	8,3
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shungao'xshash materiallar	6,4	6,5	5,9
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	2,7	2,9	3,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	16,7	10,7	11,7
Sanoat tovarlari	2,9	5,7	9,8
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	31,3	46,5	40,4
Turli xil tayyor buyumlar	9,1	3,3	1,6
Xizmatlar	7,0	4,8	4,6

Xizmatlar importining tahlili shuni ko'rsatdiki, 2021- yilning yanvar-aprel oylarida 2022- yilning yanvar-aprelga nisbatan jami importdagи ulushi 4,8 % dan 4,6 % ni tashkil etdi.



ALOHIDA IMPORT TOVARLAR (2022- yil yanvar-aprel oylari, ming AQSH. doll.)



XSTT BO'YICHA IMPORT QILINGAN AYRIM TURDAGI MAHSULOTLAR TARKIBI (2022-yil yanvar-aprel)

Mahsulot nomi	Ming AQSh dollari	o'zgarish surʼitlari, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	8 049,4	139,1
Tirik hayvonlar	2 159,3	59,4
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	148,0	635,2
Sabzavotlar va mevalar	281,4	469,0
Go'sht va go'sht mahsulotlari	129,8	72,9
Shakar mahsulotlari va asal		
Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	185,9	100,9
Baliq (dengiz sutevizuvchilari bo'lmagan), qisqichbaqa simonlar, mollyuskalar va suvda suzuvchi umurtqasizlar va ulardan tayyorlangan yarimtayyor mahsulotlar	270,0	531,5
Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	638,3	64,9
Hayvonlar uchun ozuqa	173,6	22,8 b
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	-	-
Nooziq-ovqatxonashyo, yoqilg'idantashqari		

Probka va yog'och-taxtalar	6 631,8	183,1
Tabiiy kauchuk (shu jumladan sintetik kauchuk va qayta ishlangan kauchuk)	89,1	-
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	92,4	13,5
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	6,0	
To'qimachilik tolalari		
Qog'oz va makulatura		
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xhash materiallar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xhash materiallar	4 126,9	93,5
Ko'mir, koks va briketlar	692,1	113,1
Tabiiy yoki sun'iy gaz		
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari		
Hayvon va o'simlik moylari va yog'lari	2 453,7	111,3
Hayvonlar moylari va yog'lari	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xhash mahsulotlar		
Birlamchi shakldagi plastmassalar	948,8	159,1
Bo'yadigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	90,8	134,9
Kimyoviy materiallar va mahsulotlar	4 528,5	93,7
Organik kimyo moddalari	3 463,3	155,4
Birlamchi shaklda bo'limgan plastmassalar	418,9	90,4
Noorganik kimyo moddalari	0,4	1,2
Efir moylari, resinoidlar va parfyumeriya moddalari; tualetga tayyorgarlik, jilolash va yuvish vositalari	13,1	170,1
O'g'itlar	109,3	
Sanoat tovarlari		
Cho'yan va po'lat	1 039,1	160,0
Rezina buyumlari	104,5	53,2
Boshqa boshqa bo'limgan metall buyumlar	394,0	61,3
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xhash mahsulotlar	106,0	146,8
Ruda metall bo'limgan mineral mahsulotlar.	383,1	107,0
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	5 938,0	240,9
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	49,9	192,7
Rangli metallar		
Mashinalar va transport asbob-uskunalar		


Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	183,1	2,6
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	23 940,1	161,8
Sanoat uchun maxsus bo'limgan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari	4 484,4	83,4
Elektr mashinalari, apparatlari, asboblar va ularning elektr qismlari	1 098,0	82,3
Elektr aloqasi, ovozni yozish va eshittirish apparaturalari va uskunalari	89,7	1,9
Metallarni qayta ishslash mashinalari	1 091,2	519,6 b
Kantselyariya mashinalari va ma'lumotarni avtomatik ravishda qayta ishslash uchun asbob-uskunalar	19,5	185,7
Avtomobillar	2 098,7	82,2
Boshqa transport vositalari		
Turli xil tayyor buyumlar		
Har xil tayyor buyumlar	357,9	392,4
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	793,1	67,9
Blokli binolar, SUV o'tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunalari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	157,6	12,4
Poyabzal	1,2	171,4
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	1,6	47,1
Mebel va uning qismlari, yotar joy buyumlari, matraslar, matraslar uchun tirkaklar, yostiqlar va shunga o'xshash tikilgan mebellar	27,2	183,8
Fotografik apparatura, uskuna, ishlataladigan materiallar va optik buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan; soatlar	0,2	3,8
Xizmatlar		
Boshqa ish yuzasidagi xizmatlar	2 969,2	161,6
Transport xizmatlari	83,8	490,1
Texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash xizmatlari	344,3	22,3
Moliyaviy xizmatlar	364,4	130,4

Turli xil tayyor buyumlar importi hajmlarining kamayishiga maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari (67,9 % ga pasaygan), Blokli binolar, SUV o'tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunalari uchun armatura va mahkamlash moslamalari (12,4 % ga pasaygan) importining kamayishi ta'sir qilgan.

Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar importi kamayishiga esa, Tirik hayvonlar (59,4 % ga pasaygan) importining kamayganligi bevosita ta'sir etgan.



**MDH VA BOSHQA XORIJY DAVLATLARDAN TOVAR VA
XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI
(yanvar-aprel oylari, mln. AQSh dollarri, ulushi, % da)**



Hisobot davri yakunlariga ko'ra, import bo'yicha hamkor davlatlar orasida Xitoy Xalq Respublikasi umumiy import hajmida 36,7 % ulushi bilan Rossiya Federatsiyasini (22,7 %) ortda qoldirgan holda birinchi o'rinni egalladi.

2022-yilning yanvar-aprel oylari yakuni bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi tomonidan 323 davlat bilan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi.



**TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTIDAGI YIGIRMATA YIRIK
HAMKOR DAVLATLAR**
(yanvar-aprel oylari)

Davlat nomi	Ming AQSH dollarri		o'sish sur'ati, % da		o'rni	
	2021-y.	2022-y.	2021-y.	2022-y.	2021-y.	2022-y.
Xitoy Xalq Respublikasi	13027,4	30127,9	127,5	231,3	1	1
Rossiya Federatsiyasi	12309,0	18600,6	109,4	151,1	2	2
Qozog'iston	8461,2	9384,1	139,7	110,9	3	3
Koreya Respublikasi	6451,7	5917,1	60,2	91,7	4	4
Turkiya	4597,3	4390,0	645,9	95,5	8	5
Litva	312,7	2301,1	82,6	735,9	22	6
BAA	2181,0	1882,3	965,0	86,3	10	7
Yaponiya	121,3	846,8	74,5	697,8	31	8
Qirg'iz Respublikasi	1016,8	776,6	235,8	76,4	11	9
Ruminiya	72,3	697,3	7,7	964,5	34	10
Polsha	333,6	669,3	64,5	200,6	21	11
Soedinennoe Korolevstvo	271,0	631,0	59,0	232,8	24	12
Eron	496,3	589,8	48,9	118,8	15	13
Turkmaniston	769,6	558,7	119,8	72,6	13	14
Germaniya	3940,5	553,6	1462,6	14,0	9	15
Niderlandiya	826,7	529,9	882,9	64,1	12	16
Slovakiya	82,6	444,8	9714,0	538,8	33	17
AQSh	155,3	395,6	41,6	254,7	29	18
Belarus	335,0	316,5	118,8	94,5	20	19
Avstriya	381,2	267,0	247,6	70,1	18	20

Shuni ta'kidlash kerakki, Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Koreya Respublikasi, Turkiya kabi mamlakatlar Qoraqalpog'iston Respublikasiga tovar va xizmatlar importidagi yirik hamkor davlatlar birinchi yigirmataligiga kirdi.

Yeti yirik hamkor davlatlar (Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Koreya Respublikasi, Turkiya, Litva va BAA Respublikasi) jami importning 88,6 % ulushini tashkil qildi, bu 72,6 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.



**RESPUBLIKA IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR
DAVLATLARNING ULUSHI
(2022- yil yanvar-aprel oylari, % da)**




Mamlakatdagi sarmoyaviy muhit yaxshilanganisari ushbu sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida moshina va uskunalar, shuningdek, ularning qismlari importining o'sishi tabiiydir. Shunday qilib, Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Koreya Respublikasi tomonidan kiritilgan

katta hajmdagi investitsiyalar natijasida, mahsulotlar importi hajmida ushu mamlakatlarning yuqori ulushi saqlanib qolmoqda.



XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI
(2022-yil yanvar-aprel oylari, ulushi, % da)



2022- yilning yanvar-aprel oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi 3 761,8 ming AQSh dollarini yoki jami import hajmining 4,6 % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 0,2 % ga kamaydi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi boshqa ish yuzasidagi xizmatlar (78,9 %), moliaviy xizmatlar (9,7 %) dan iborat bo'ldi. Shuningdek, texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash xizmatlar va (9,2 %) va transport xizmatlari (2,2 %) tashkil etdi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi
bo'limi
Tel: (61) 224-92-06